


# Xalqaro konferensiya: astrofizika sohasidagi ilmiy yutuqlar muhokama qilinmoqda

Joriy yil 12-may kuni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti tomonidan relyativistik astrofizika va gravitatsiya bo'yicha xalqaro konferensiya tashkil etildi. Unda dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlaridan 90 ga yaqin soha mutaxassislari ishtirok etmoqda.





Shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi besh-olti yil ichida mahalliy, mintaqaviy va xalqaro ilmiy jamoatchilik e'tibori va yordami bilan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonda umumiyligi nisbiylik nazariyasi va relyativistik astrofizika sohasida samarali faoliyat yurituvchi raqobatdosh ilmiy guruqlar orasida avval mavjud bo'limgan ilmiy hamkorlik shakllantirildi. Shu sababli, konferensiyaning asosiy maqsadlaridan biri Markaziy Osiyoda oxirgi besh yilda erishilgan ulkan yutuqlarni e'lon qilish va Yevropa hamda Janubiy/Sharqiy/Markaziy Osiyo mamlakatlari olimlari ishtirokida astrofizika sohasida muhokamalar o'tkazishdir.

Shuningdek, mazkur konferensiya Mintaqaviy (Markaziy Osiyo) yosh astrofiziklarni tarbiyalash, astrofizika sohasida xalqaro ilmiy jamoatchilik bilan birgalikda, xalqaro institutlar bilan aloqalarni va ilmiy hamkorlikni kengaytirish hamda olingan ilmiy natijalar bilan o'rtoqlashish imkoniyatini yaratishda juda ahamiyatli.